

– Men bu gazetani eng yaxshi gazetalar qatoriga qo'shaman. Barcha tengdoshlarimni unga obuna bo'lishlarini chin dildan istayman.

Nodira AZIMOVA



2007-yil
12 – 18-
noyabr
N:46
(66639)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

BU GAZETA HAMMAMIZNIKI!

Tahririyatimizga deyarli har kuni mehmonlar kelib turishadi. Ayniqsa, o'tgan hafta uchrashuvlarga boy bo'ldi. Tashrif buyurganlarning barchasi bolalar va o'smirlarning ertasi, ularning odob-axloqi, bilim olishlari va yana boshqa masalalar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar hamda bu gazeta eng ko'p nusxada tarqalishini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Bugungi kunimizni gazeta va jurnallarsiz tasavvur qilish qiyin. Har bir bola o'qishi kerak! Mamlakatimizda olib borilayotgan ezgu ishlar voqea va xabarlar bilan doimiy tanishib borish uchun matbuotga ko'proq murojaat qilamiz. Bolajonlarimizning ilk ijod yo'li «Tong yulduzi» gazetasi boshlanadi. Shunday ekan, bu gazeta har bir o'quvchi qo'lga yetib borishi uchun imkoni boricha ko'proq harakat qilishimiz kerak.

Nuriddin DAVLETOV,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumani Xalq ta'limi boshqarmasi, ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinbosari



Nasiba MAQSUDOVA, suxandon:
– Gazeta jamoasining ahilligini ko'rib, xursand bo'ldim. Ibratli jamoadan ibratli gaplar chiqadi. Nevaralarimning bu jamoa chiqazayotgan gazeta har bir sonini o'qib berishlarini istayman.



«TONG YULDIZI» QORAQALPOQDA
Maktablarimizda o'quvchilar uchun bugungi kunda barcha qulay shart-sharoitlar mavjud. O'quvchilarimiz gazeta va jurnallarni qancha ko'p o'qisa, ularning dunyoqarashi shuncha ortib boradi. Ayni kunlarda gazeta va jurnallarga obuna bo'lish ishlari avjida. Biz o'quvchilarimizga «Tong yulduzi», «Gulxan», «Sog'lom avlod», «Klass» kabi gazeta va jurnallarni doimiy o'qib boringlar, deymiz.

Nurg'ali SEYTNAZAROV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxtako'pir tumani, Xalq ta'limi boshqarma boshlig'i



Eshqobil SHUKUR, shoir:
– «Tong yulduzi»ni har bir o'quvchi mutolaa qilishi zarur, deb o'ylayman.

OBUNAGA SHOSHILINGI!

Aziz bolajonlar, respublikadagi tengdoshlaringiz hayoti, qiziqish va intilishlari haqidagi maqolalar, ichakuzdi xandalar-u biri bog'dan, biri tog'dan «so'zlovchi» hangomalar, sizni sirli olamga yetaklovchi ertaklar o'qishni, boshingizni obdon qotiradigan krossvord-u skanvordlar yechishni xohlaysizmi? Unda, sevimli nashringiz «TONG YULDIZI»ga obuna bo'lishga shoshiling.

Nafisa RUSTAMOVA:
– Bu gazetani yoshlikdan sevib o'qiyman. Mehmon bo'lib kelgandim, omadim chopib, ishga qabul qilishdi. Juda baxtiyorman. Endi astoydil ishlamoqchiman. 2008-yilda miriqib gazeta o'qiyman, desangiz, obuna bo'lishga shoshiling!

Aks holda, kech qolasiz. Chunki samarqandlik tengdoshlaringizning 6100 nafari, namanganlik o'g'il-qizlarning 2399 nafari, andijonlik o'smirlarning 1733 nafari allaqachon gazeta obuna bo'lishga ulgurishibdi.

Siz ham obuna bo'lib, viloyatingizni obunada peshqadamlilik qilayotgan viloyatlar qatoriga qo'shilishiga o'z hissangizni qo'shasiz, degan umiddamiz.

Obuna bahosi Toshkent shahri uchun bir yilga atigi 4116 so'm.
Nashr indeksi – 198.

Yoshim yetdi sakkizga

RASMLAR QAYSI ERTAKDAN OLINGAN?



ERKALIK HAM BIR HUSN

Mening ikki nafar jiyanlarim bor. Birining ismi Sunnat, ikkinchisidiki esa Ozod. Ular 3-4 yoshda. Bog'chaga borishadi. Ota-onasiga ko'p erkaliklar qilishadi. Ertalab dadasi, oyisi ishga shoshayotganligini bilishsa ham, bog'chaga bormaymiz, deb xarxasha qilishgani-qilishgan.

Bu holatni men ko'p kuzatib, jiyanlarimning ota-onasiga shunday dedim: «Nega o'g'illaringizga hecham qattiq gapirmaysiz?» Akam esa ularning ko'm-ko'k maysalar ustida qiqirlashib kulib gaplashib yotganliklarini ko'rib: «Bolalikning erkaliği ham bir husn-da», deb farzandlariga jilmayib qo'yidilar.

GULAFZAL,
Qashqadaryo viloyati

«BIZDAN HAM CHEMPION CHIQSIN»

Qishlog'imizda sportchi bolalarga keksalarimiz havas bilan qarashadi. Men ham 9 yoshimdan tumanimizdagi sport zalida Husanboy Qurbonovdan boksni o'rganganman. Hozir esa Andijon sport kollejida Jasur Qurbonovning shogirdlaridan biriman.


Natijalarimdan hamqishloqlarim quvonmoqdalar. 11 yoshimda viloyat chempioni bo'ldim. 52 kg. vazn toifasida yaqinda O'zbekiston birinchiligining 2-o'rin sohibiga aylandim.

Qishlog'imizdan hozirgacha bokschi chiqmagandi. Shu boisdanmi, xovosliklar mening yutuqlarimni katta qiziqish bilan kuzatib borishmoqda. «Boksni tashlab ketma, bizdan ham chempion chiqsin», deyishyapti ular. Bu dalda menga qandaydir kuch-quvvat beryapti. Shuning uchun sportni tashlab ketmoqchi emasman. Niyatim katta ringlarda ulkan g'alabalarga erishish.

Boburjon SAIDALIYEV,
Andijon viloyati, Bo'z tumani

2

Qaysi qushlar yovvoyi, qaysilari uy parrandalariga tegishli? Ularni chiziqlar bilan tutashtiring va qanday shakl hosil bo'lganini toping.



1. Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor beriladi.

«Bola huquqlari to'g'risida»gi
Konvensiya 1-qism 3-modda

Ilhom ZOIR

Quyosh peshindan og'ib, havo dim bo'ldi. Ichkarida nafas olish qiyinlashdi. Quyonoy tashqariga chiqib, daraxtning soyasidan ham hech nimani sezmedi. Qachonki, Quyonchani o'qituvchisi To'tiqushxonim maktabdan qayta turib, yo'l-yo'lakay Quyonoyga:

– Ertaga maktabda ota-onalar majlisi, kechikmay boring! – deb tayinlagandan keyin o'g'lining maktabdan hali ham qaytmaganini payqadi va To'tiqushxonimdan:

– Quyoncha bugun necha soat o'qidi? – deb so'radi.

– Quyoncha uch soat o'qidi. Nima, hali maktabdan qaytmadimi? – dedi To'tiqushxonim.

Quyonoy To'tiqushxonim bilan xayrlashmay shoshganicha uyga kirdi. Quyoncha yo'q, tashqarini, chor-atrofni tintib chiqdi, topilmadi. Boshqa quyonchalarning ichiga vahima solmaslik uchun sekingina Quyonvoyning qulog'iga shipshidi.

– Shalpangquloq maktabdan qaytmadi. Aslida hozir uyda bo'lishi kerak!

Quyonvoyning qulog'i dikkaydi. U ham Quyoncha sig'adigan kavaklarni qarab chiqdi, lekin topilmadi. Olashaqshaq keksa

qarag'ayning shoxiga qo'nib, anchadan buyon ota-onaning xatti-harakatlarini kuzatib turgan ekan:

– Bezovta ko'rinasiz, nima gap? – deb so'radi Quyonvoydan.

– Belkurakni izlayapmiz, – dedi Quyonvoy ortiqcha vahima ko'tarmaslik uchun atayin yolg'on gapirarkan.

Hatto to'g'ri gapga ham shubha bilan qaraydigan Olashaqshaq:

– Siz yolg'on gapiryapsiz, – dedi piching aralash. – Belkurakni qayerdan qidirishni men yaxshi bilaman. Menga ayting-chi, oxirgi marta belkurak bilan nima ishini bajargansiz?

– Karamga ishlov berganman, – Quyonvoyning ensasi qotdi.

– Shunday ekan, belkurakni daladan izlang!

– U yerdan topilmadi.

– Ehtimol, qo'shningizga bergandirsiz?

– Olmadik, dedi...

Shu payt Quyonoy Olashaqshaqqa e'tibor bermay:

– Topildimi? – deb so'radi Quyonvoydan.

– Belkurakmi? – dedi Olashaqshaq tepadan turib. Quyonoy shoshganidan:

Davomi. Boshi o'tgan sonda.

– Yo'q, o'g'limiz, – dedi. – O'g'limiz yo'qoldi. Hanzu maktabdan qaytmadi.

– Demak, o'g'lingizning ismi Belkurak? Bizda quyonlarga Belkurak deb ism qo'yishmasdi-ku?

– Uning ismi Shalpangquloq.

– Shalpangquloq yo'qolgan bo'lsa, nega belkurakni izlayapsizlar?

– Belkurakni o'g'limiz maktabga olib ketmaganmikin, deb o'ylayapmiz-da...

Shu payt suhbatga Qarg'a qo'shildi va birpasda bu gap o'rmonga yashin tezligida tarqaldi. Eshitgan-eshitmagan kelib, ota-ona Quyonlarning ko'nglini ko'tarib, dalda berdi.

– Shalpangquloq yaxshi bola edi, – dedi Tipratikan.

– Qachon qarasang, labidan kulgu arimasdi, – dedi Jayron.



(Davomi bor.)

Orif TO'XTASH

ALDAGAN EDIK

Mansur xurragin otib,
Yotar edi chalqancha.
Pinagini buzmadik,
Uyg'otsak ham har qancha.

Uni rosa aldadik,
Ishonmadi tirmizak.
O'rmidan sakrab turdi,
Oshdan qolasan, desak.

Endi: «Qani, – deb, – oshim?»
Yomg'ir qilar ko'z yoshin.

OYIJONIM



Men oyimni juda yaxshi ko'raman. Chunki oyijonim juda-juda mehribonlar. U kishi meni sevib ardoqlaydilar.

– Bolajonim, mehribonim, – deyдилar. – A'lo o'qi, she'rlar to'qi, qo'zichog'im, – deyдилar.

Men oyijonimning mehr to'la ko'zlariga to'yib-to'yib boqishni yaxshi ko'raman. Chunki ularda o'z kelajagimni ko'rganday bo'laman. Ba'zan oyijonim qalbini g'uborsiz osmonga o'xshatgim keladi. Unda men samimiyat va poklik nafasini sezaman.

Oyijonimning peshonasida endigina sezila boshlagan chiziq izlarida, sochlarida ko'rina boshlagan oq tolalarida men o'z injiqliklarim va sho'xliklarim aksi borligini his qilaman.

Oyijonimni qanchalik ardoqlamay, ertalabgacha mijja qoqmasdan bedor o'tkazgan tunlari haqini hech narsa bilan uzib bo'lmaydi.

Azizbek YOQUBOV,
S.Rahimov tumanidagi
219-maktabning 3-sinf o'quvchisi



(Ertak-qissa)

QUVNOQ QYONCHA

NURGA TALPNING

komil inson bo'lish sirlari

Yoki

3

«Nazariya quruq og'ochdir», degan edi Gyote. Bizning esa aytgan so'zlarimiz quruq og'och bo'lib qolmasligi o'zimizga bog'liqdir.

Har bitta inson Vatanga bo'lgan muhabbatini ko'ngil taxtiga toj deb biladi. Chunki Vatan tuyg'usini e'zozlash hamisha farzdir.

Aslida, Vatan komillar va komillikka intilayotgan insonlar qo'lida obod bo'ladi.

Komillik...

Unga qanday ta'rif berish mumkin?

Har tomonlama mukammallikka yetishish orzusi azaldan ajdodlarimizning fikrini band etib keladi. Zardushtiylik manbai bo'lgan «Avesto»da ham komillikka yetishish to'g'risida ko'rsatmalar bor. Muqaddas hisoblangan kitobda bolani yoshlikdan o'qitish, yaxshi tarbiya berish buyurilgan.

Ulug' alloma, «Sharq Arastusi» – Abu Nasr Farobiy «Al Fozila val mabina» (Fozil odamlar shahri) asarida komillikning fazilatlarini batafsil sanab o'tgan.

Ulug' shoir Alisher Navoiy hazratlarining har bir asarida, jumladan, «Xamsa» dostonida inson kamoloti xususida so'z boradi. «Hayrat ul-abro» dostoni inson ruhiyati mukammalligini to'liq namoyon qiladi. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy» dostonlarida komil inson obrazi yaratilgan.


Biz komillikni avliyolarimiz – Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Hoji Ahror Valiy siyratlarida, timsollarida ko'ramiz.

Men komillikni inson qalbining jilvalanishida deb bilaman.

Qalb qanday jilvalanadi?

Qalb, avvalo, insoniylik nuridan bahramand bo'lishi lozim. Ana shunda qalb adob-axloq, mehribonlik, saxovat bilan jilolanadi.

Ilmsizni ko'r insonga qiyoslaydilar. Muqaddas Qur'ondagi ilk so'z «o'qi», degan buyruq bo'lgan ekan. Payg'ambarimiz (s.a.v) ilm olish har bir insonga – erkag-u ayol musulimga farzdur, deb marhamat etganlar. Va yana muqaddas bitiklarda ilm olib,



amalgan insonlarga sanoqsiz la'natlar yog'ilmishdir, deyilgan.

Demak, ilm olish muqaddas burch, ayni chog'da, mas'uliyatli vazifadir.

Komillik niholi har bir inson yuragiga hadya etilganidir. U gullashi uchun ilm-nur, obi hayot. Inson uch xislat – Odamiylik, Ilm va Tafakkurga ega bo'lsa, u komillik darsining ilk eshigini ochgan hisoblanadi. Lekin bu Qasrning mo'jizakor va karomatli, taxallusi ilohiy xonalari behisobki,

tasavvur etmoqqa ojjizimiz.

Xalqimiz daho farzandlari bilan faxrlanishga haqli. Xorazmiy, Buxoriy, Ali Qushchi-yu Naqshbandlarning o'z davrlaridan turib sochgan yog'dulari hamon avlodlar shuurini, qalb mavhumliklarini yoritmoqda va butun jahon ahlining tahsiniga sazovor bo'lmoqda.

Ma'lumki, 2007-yil Toshkent shahri dunyo Islom jamoatchiligi (ISESCO) tomonidan «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi. Bu maqom yuz yillar davomida qo'lga kiritildi. Ajdodlarimiz komilligi mana shunday ulug'likni hadya qildi.

Prezidentimiz I.Karimovning 2006-yil 26-avgustdagi «Ma'naviy va ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Qarori muhim voqea bo'ldi. Chunki komil farzand tarbiyalovchi xalqning ma'naviyati yuksak, ma'rifati olovli bo'lishi shart. Ma'naviyat ongimizni nurlantiradi, ma'rifat esa qalbimizdagi fidoiylikka taft beradi.

Yurtboshimiz «Kelajak avlod jismonan va ma'nun barkamol va albatta baxtli bo'lishi shart», degan edilar.

Aziz tengdoshlarim!

Vatanimiz bag'rida gullayotgan mustaqillik daraxtining mevasidan bahramandmiz. Ajdodlarimiz qoni va matonatidan yaralgan Nurlik qasrining sohiblarimiz. Bas, biz bu bebaho ne'matlarning qadriga yetishimiz shart. O'zimizning o'qishimiz, ma'naviyatimiz bilan haqiqiy KOMILLIKKA ega bo'lib, xalq xizmatiga kamar bog'laylik. Toki, bizdangina umid qilgan Cho'lpon-u Qodiriyalarning, Avloniy-u Fitratlarning ruhlari shod bo'lsin. Vatanimizni Jahon ahli oldida Buyuklik sahnasiga olib chiqaylik.

Akrom MALIKOV,
«Notiqlik san'ati» ko'rik-tanlovi
ishtirokchisi

LAYLONING
IXTIROSI

Shveysariya xalqaro aerokosmik federatsiyasi tashabbusi bilan o'tkazilgan xalqaro musobaqada Chust tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Laylo Zayniddinova ham ishtirok etdi. U kosmik modellashtirish bo'yicha «Boyqo'ng'ir» kosmodromida o'tkazilgan 1-Osiyo ochiq chempionatida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Dunyoning 18 ta davlati vakillari ishtirok etgan musobaqada Layloning kosmik modellar nusxasi yuqori baholanib, Osiyo chempioni unvonini oldi.

Bu chempionlik Layloga kelgusi yili Ispaniyada bo'ladigan kosmik modellashtirish bo'yicha XVII jahon chempionatida qatnashish huquqini berdi.

Ixtirochi tengdoshingiz Laylo bilan faxrlansak arziydi, shunday emasmi?

YANA OLIMPIYA
YO'LLANMASI!

Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi Ko'lxatib qishlog'ida katta tantana. Chunki xalqaro maydonda yana bir bokschi akangiz jahon chempioni unvoniga sazovor bo'ldi. AQSHning Chikago shahrida boks bo'yicha jahon chempionatida qatnashgan Abbas Atoyev O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tardi. U chempionatning final qismida rossiyalik kuchli bokschi Artur Beterbiyev ustidan g'alaba qozondi.

– Yurtimizga oltin medal va olimpiya yo'llanmasi bilan qaytgan jahon chempioni bizning murabbiyimiz ekanligidan boshimiz ko'kka yetdi, – deyishdi Buxoro viloyati Bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabining tarbiyalanuvchilari.



SHAXSIY
KUTUBXONANGIZ
BORMI?

Dunyodagi eng yaxshi odam kitob mutolaasi bilan shug'ullanayotgan kishidir.

Shaxsiy kutubxonangiz bormi? Bu savolga javob berish manmanlik deb o'ylasangiz, xato qilasiz. Insonning o'z ma'naviy olami boyligini ko'z-ko'z qilishi unga faqat qadr-qimmat keltirishi mumkin.

Ushbu savol bilan sizga murojaat qilayotganimizda, bo'ylari shiftga qadar yetadigan kitob uyumlaringizni nazarda tutmadik. Bu go'yo ko'zguning ikki tomoniga tashbeh, «xo'jako'rsin»ga tashkil etilgan kutubxona ko'zguning keraksiz tomoniga o'xshaydi.

Bir mashhur faylasuf o'z shaxsiy kutubxonasiga kirganida, jimjitlik, sokinlikni emas, mutlaqo boshqa bir holatning guvohi bo'lar ekan. Uni o'zi o'qigan sevimli asarlarining qahramonlari olqishlar bilan kutib olar va uzoq-uzoq suhbat qurisharkan. Natijada faylasuf o'z kutubxonasida uzoq vaqtlar xayol surib qolib ketar ekan. Oddiy insonga faylasuf darajasini bera oladigan xilqat ham ana shu kitoblar aslida. Ko'rdingizmi, aziz bolajonlar, tinimsiz mutolaa va mehnat evazigagina inson buyuk zotga aylanadi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor xalq shoirasi Zulfiya ijodi haqida to'xtalib o'tganlarida, quyidagi fikrlarga alohida urg'u berganlar: «Asarning ko'pi yoki kattaligi emas, ta'sirchanligi, qalblarga bag'ishlaydigan ma'naviy qudrati hisob». Ana shu fikrlarga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, ko'p kitob o'qish shart emas, biroq, kam bo'lsa-da, uni uqan maqbuldir. Oftobning qadri uning nurlari bilan, kitobning qadri mazmuni bilan belgilanadi. Shaxsning o'zi yashayotgan jamiyatda qandaydir darajaga, mavqega erishishi kitoblarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Kitoblar insonni shunday qolipga tushiradiki, uning devorlari «vijdon» deya atalmish qalqon bilan mustahkamlanadi.

Ulkan tog' cho'qqisi tomon bor imkoniyatini ishga solib intilayotgan alpinistni kuzatganmisiz? U cho'qqiga chiqish uchun qancha mehnat sarflagan bo'lsa, osmon etagiga yetganida undan-da ortiqroq zavq oladi. Kitob mutolaasi ham xuddi ana shu jarayonga o'xshaydi. Aziz bolajonlar, bu haqda sizlarni fikrlaringiz qanday? Sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bormi? Maktublaringizni kutib qolamiz.

Nafisa RUSTAMOVA

BIR USTOZNING SHOGIRDLARI



YAHYO POLVON

Yahyo IMOMOV, Surxon vohasining Denov tumanidan. U 2003-2004-yillarda 60 kg. vazn toifasida O'zbekiston birinchiligida g'olib chiqqan. Angliyada o'tgan Islom Karimov xalqaro turnirlarida barcha raqiblarini mag'lub etgan.

Uning dadasi, bobosining otasi va bobosi ham Surxon to'ylarida nom qozongan kurashchi polvonlardan. Oilaviy an'ana kichik Yahyoni ham chetlab o'tmadi. U hozir Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida Yahyo polvon nomi bilan tanilmoqda. Xalqaro turnirlarga, jumladan, Angliya safariga borganida «chala», «yonbosh» so'zlarini baralla yangraganini eshitib, ko'ngli g'ururga to'ldi.

Yahyo yaqinda 73 kg. vazn toifasida O'zbekiston birinchiligida 2-o'rinni band etdi. Ayni kunda 2008-yil respublika birinchiligi uchun harakatni boshlab yuborgan.

«MAQSADIM – FAQAT G'ALABA!»

Zafarjonning oilasi sportchilardan iborat. Uning dadasi «Sho'rchi» futbol klubida murabbiy, akasi shu jamoada o'yinchi. Ammo Zafarning mehri kurashga tushdi. Dastlab amakisi G'afur Yo'ldoshev murabbiyligida kurash sirlarini o'rgandi. Bugungi kunda Zafar Yo'ldoshev Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida tahsil olmoqda.

Xalqimiz azal-azaldan polvonlarni hurmat qilib kelgan. Chunki polvonning el-ulus orasida burchi bor. Bu burch oriyat va mardlik belgisidir. O'zbekiston yoshlar terma jamoa ustози, Respublika Olimpiya zaxiralari kollejining milliy kurash bo'limi bosh murabbiyi Murod aka Dusumbetovning shogirdlari ana shu an'anaga sodiq qolmoqdalar. Yaqinda murabbiyning shogirdlari kurash bo'yicha o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda jahon chempioni nomiga munosib deb topildilar. Murodjon Dusumbetovning shogirdlari shu kunlarda joriy yilning dekabr oyida Xivada bo'lib o'tadigan V an'anaviy Pahlavon Mahmud xalqaro turniriga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdalar.

– Men hozir mashg'ulotlarimni professional darajaga ko'tarishga qaratganman, – deydi u. – Fransiyaga xalqaro turnirga borib g'alabaga erishganim bilan butun tumandoshlarim, mahalladoshlarim samimiy qutlashdi. Shunda jahon chempioni Abdulla Tangriyevga juda-juda havas qildim va u kabi yuksak marralarga yetishishni astoydil niyat qildim.

EGIZAK KURASHCHILAR

Hasan-Husan Yusupovlar 1994-yilda tug'ilishgan. Ularning akalari Shuhrat va Zokir Yusupovlar ham kurashchi.

Yaqinda Hasan va Husan Yevropaning ikki yirik davlati – Angliya va Fransiya mamlakatlarida o'tgan turnirlarga borib kelishdi.

– Farzandlarim bilan faxrlanaman, – deydi Salima opa. – Ularni sportchi bo'lib




elga tanilib borishidan yana bir karra xursandman. Chunki sport bolalarimning ta'lim-tarbiyasini mustahkamladi. Ularning bo'sh vaqti sport zallarida o'tayotganligi meni bir quvontirsa, yana katta davlatlarga borib chempion bo'lib qaytishlari qalbmni faxrga to'ldiryapti.

Ayni vaqtda qadimiy Xiva shahriga yo'l olayotgan yosh polvonlarimizga omad yor bo'lsin, deb niyat qildik.

Ma'mura MADRAHIMOVA

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



ENIGA: 5. Dunyoda ommalashayotgan milliy sportimiz. 6. Oliy tabaqa futbol jamoasi. 8. Maxfiy ma'lumotlar berish uchun ishlab chiqilgan belgi yoki signallar tizimi. 10. Hunarmandchilikda o'choqqa havo haydovchi moslama. 11. Ip, ipak aralash milliy gazlama. 12. Sport musobaqasi sovrini. 14. Jo'g'rofiy xaritalar to'plami. 16. Yirik marvarid. 18. Qazilma yoqilg'i turi. 22. Alisher Navoiyning shoh asari. 24. Darddan xalos bo'lishning sharti. 25. Bemorlar uchun o'z qonini beruvchi. 26. Poytaxtimizdagi nashriyot. 28. Oy nomi. 29. Artilleriya to'pining stvoli o'rnatiladigan dastgoh. 30. Jizzax viloyatidagi tuman.

BO'YIGA: 1. Qadimdan qo'llanilgan o'n olti kilogrammga teng og'irlik o'lchovi birligi. 2. Transport vositasini tirkab olib yurish usuli. 3. Korxonaning pul bilan bog'liq turli xildagi faoliyatini amalga oshiruvchi bo'limi. 4. Markaziy Afrikadagi ko'lga nomdosh davlat. 5. To'g'ri burchakli uchburchakning katet atrofida aylanishidan hosil bo'ladigan geometrik shakl. 7. Ma'lum bir narsa haqida avvaldan chiqarilgan tasavvur. 9. Yuk ko'tarish texnikasi. 13. Tanasi qoramtir tropik daraxt. 15. Qadimgi yunon muarrix Gerodot asos solgan fan. 19. Majoziy mazmundagi asar. 20. Boks maydoni. 21. Yirik nasriy asar. 23. Sochi shahridagi iqlimiy oromgoh. 24. Daryoning boshlanishi, suv yo'li. 27. Puflab chalinadigan musiqa asbobi. 28. Rangli metall.

Belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida raqam atrofiga: 17. Yuridik hujjatlarni tasdiqlovchi lavozimli kishi.

MUAMMONOMA

Kalit so'zlar: 1. Tashkil topganligining ikki ming yilligi nishonlanadigan vodiydagi shahar – 18, 1, 5, 20, 3, 6, 8, 9.

2. Dunyodagi eng ommalashgan sport o'yini – 14, 2, 4, 12, 8, 6.
3. Avtomobil kuzovi turi – 21, 17, 13, 1, 9.
4. Ipak gazlama – 7, 8, 19, 3.
5. Tinish belgisi – 10, 1, 11, 21.
6. Moviy rang – 15, 16, 15.

Endi kalit so'zlar javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan o'z davrining donishmand ijodkori Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi ikki misra hikmatni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



KIM HAQ-U KIM NOHAQ?..

Ismim Nigora. Sizlar bilan dilimdagi so'zlarimni o'rtoqlashgim keldi. Aslida biz sinfdoshlar bilan juda ahilmiz. Ayniqsa, sinfimzdagi Jamshid eng a'lochi o'quvchi. U o'qishda, sportda va jamoat ishlarida hammaga o'rnak. Yurish-turishi-yu, hatto biroz gerdayib gapirishigacha

o'ziga yarashadi.

Bir voqea sabab bo'ldi-yu, undan ko'nglimiz qoldi. Keling, yaxshisi sizlarga gapirib bera qolay:

Jismoniy tarbiya darsi edi. O'qituvchimiz bizlarga maktab atrofini ikki aylana yugurishimizni, so'ngra basketbol o'ynashimizni tushuntirib, o'zlari qayoqqadir ketdilar. O'yin qizigandan qizib ketdi. Barcha bolalar terlab-pishib jon-jahdlari bilan basketbol o'ynay boshlashdi. Sinfdoshimiz Alisher ham

basketbolda to'p tushirishga ustasi farang. Mana, hozir u bir necha bor to'pni to'rga tashlab, bolalarning olqishlariga sabab bo'ldi.

Jamshid bo'lsa birdan tutoqib, hali senmi mendan o'tadigan, qabilida ish tutib, Alisherni oyog'idan chalib yiqitdi. Bechora Alisher bundan achchiqlansa ham o'rnidan turib, hech narsa bo'lmagandek o'yinni davom ettirdi. Alisherning yana omadi chopdi. «Urre! Hisob: 2-0. Oldinda ularning jamoasi!» Ana endi Jamshidbekning tutoqishini ko'rsangiz... Endi u ochiqchasiga dahanaki jangga o'tdi, Alisherga tasir-tusur qilib musht tushira ketdi.

Bu orada Dilnoza o'qituvchimizni boshlab keldi. Ustozning chalgan xushtigidan hamma hushyor tortdi.

Ustozimiz hech narsadan xabarlarini bo'lmasa-da, Jamshidni oqladilar, uning a'lochi, intizomli bola ekanligini takror-takror aytdilar. Bizning kuyib-pishib tushuntirishlarimiz zo'ye ketdi.

Aziz o'quvchilar, qani ayting-chi, bu yerda kim haq-u kim nohaq edi?

**Nigoraning gaplarini MANZURA
oqqa ko'chirdi**

QUSHLAR – EZGULIK TIMSOLI

Odamzod azaldan o'simliklar dunyosi, hayvonotga hamda qo'sh qanotlilar olamiga shafqatli bo'lishni



yuksak fazilat deb bilgan. O'zbekistonimizning gerbida ham baxt qushi – Humo tasvirlangani bejizga emas. Har doim ezgulik va poklik, go'zallik timsoli bo'lgan bu qushlar mo'jizakor tabiatning jonli bir bo'lagi bo'lib kelgan. Barchamizga ma'lumki, qushlarni o'rganuvchi fan Ornitologiya fani hisoblanadi.

Ushbu fanning bugungi ahvoli, yutuq va kamchiliklari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti umurtqali hayvonlar ekologiyasi bo'limi mudiri, biologiya fanlari doktori Elmurod Shernazarov shunday deydi: – Qushlar tabiat uchun qimmatlidir. Ular, asosan hasharotlar bilan oziqlanib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini muhofaza qiladi va atrof-muhitni tozalaydi. Ular orasida, albatta zararkunandalari ham topiladi. Masalan, mayna, chug'urchuq kabilar ana shunday qushlar sirasiga kiradi. Markaziy Osiyo va O'zbekistonda 450 dan ziyod qush turlari mavjud bo'lib, afsuski, shundan 80 ga yaqini yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi. Ulardan 70 ga yaqini «Qizil kitob»ga kiritilgan. Bularga qizilqanot, qora va oq laylak, qizg'ish saqoqush, chinqiroq g'oz, oqbo'sh o'rdak kabi noyob parrandalar kiradi.

Respublikamizdagi mavjud qushlar uch guruhga: o'troq, qishlovchi va kelib-ketuvchi turlarga bo'linadi. Umuman, qushlarga qaysi hudud yashash uchun qulay bo'lsa, o'sha joyda o'troq bo'ladi yoki qishlaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud sun'iy ko'llarning ko'pchiligida suvda yashovchi turli qushlarni uchratish mumkin.

Qushlar tabiatan ekologik o'zgarishlarni tez ilg'ash xususiyatiga ega. Ular tabiatdagi salbiy hodisalardan ko'plab talofat ko'rishadi. Ularni asrab-avaylash bizning insoniy burchimizdir.

Robiya XUDOYBERDIYEVA

FARZANDNING BURCHI

Ota-ona farzandini dunyoga keltiradi, unga yoshligidan tarbiya beradi. Yaxshi tarbiya olgan bola kelajakda oliy martabaga erishadi. Aslida, farzand dunyoga ota-onasiga yaxshilik qilish uchun keladi. Ota-ona farzandini qachon chaqirsa, u hamma ishlarini tashlab, ularning oldiga borib xizmatlarini qilishi zarur. Ota-ona bolasiga o'zi yemagan taomlarni yediradi, kiymagan kiyimlarni

Shunday ekan, haqqimizni uzmasak, bu hayotda yashashdan ne hojat?!

Shunday farzandlar borki, ota-onasini ko'klarga ko'tarib yuradi, ularga xizmat qiladi, imkoni bo'lsa, Hajga ham olib boradi. Shunday farzandlar borki, ota-ona mehriга muhtoj bo'lib yashayaptilar, ular yoshlikdan ota-onadan ajralgan yoki «Mehribonlik uyi»da katta bo'lishgan va yana shunday farzandlar borki, ota-onasini zor qaqsatib, ularning qadriga yetmay, ularga ozor berib yurishibdi. Axir besh qo'l barobar emas-ku.

Rivoyat qilurlarki, bir kishi Payg'ambarimiz (s.a.v) huzurlariga kelib: «Yo Rasululloh, otam-onam bor, ularning aytganini va ta'minotini qilaman, lekin shunga qaramay, ular meni tahqirlab uyaltiradilar. Men nima qilay, shuni bilgani kelgan edim», dedi. Rasululloh (s.a.v): «Agar ota-onang seni tilka-pora qilsalar ham, ular haqining choragini ham qaytara olmayсан. Bilginki, Jannat ota-onalar oyog'i ostidadur», dedilar.

Intiho qilib shuni aytish mumkinki, ota-onaning haqi betakror va salohiyatli. To'g'ri, ba'zi farzandlar ota-onasining shunchalik qadriga yetadiki, buni yuqori darajada e'tirof etish joiz. Ota-ona farzandi uchun jon berishga ham doimo tayyor bo'lgan zotlardir, shu bois qalbi qaynoq ota-onamiz boshimizga ko'tarishga arziydigan insonlardir.

Ruslan IBODOV

Bilimingizni sinab ko'ring!

X² yilda Sobir X yoshga to'ladi. Sobir qaysi yilda tug'ilgan?
X=45. 45² = 2025,
2025-45=1980-y.
Javob: 1980-yil.

x 126
**

1*2*6

Yulduzchalar o'rnini raqamlar bilan to'ldiring:

J: 2-ko'paytiruvchi 81.

Qutida 8 ta qizil, 7 ta ko'k, 6 ta yashil va 3 ta sariq sharlar bor. Har bir rangdagi sharlardan bittadan bo'lishi uchun eng kami bilan nechta shar olish kerak?

J: 22 ta.

999 sonini hech qanday arifmetik amal bajarmasdan, bir yarim marta kamaytir.

J: 666. 999 sonini 180°ga buramiz.

Raqamlarni tiklang:

J: 405x205

2**
2**5
**0
83***

Yulduzchalarni va harflarni raqamlar bilan almashtiring:

x ***** A J: 1 2 3 4 5 6 7 8 9
A x 9
B B B B B B B B B 1 1 1 1 1 1 1 1 1

3 *** | * 3
* 3 | ***

* 3*


0

Raqamlarni tiklang:
J: 3128 : 23 = 136

Nurmahammad TURKMANOV

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Astrid LINGREN



va Bolakay haqida qissa

karmonim ham shu yerda ekan. Men bo'lsam, qayga yo'qotdim, deb o'ylanib yuribman.

Ikki o'g'ri Oskarni gap bilan chalg'itib, uni shilib olish maqsadida unga turli xil ichimlik va yegulik taklif qildilar.

– Azizim Oskar, ol, uyalma, yeb-ichib o'tir. Begona shaharda ochiq qolma.

Fille shunday dedi-yu, dasturxon tagida yotgan hamyonni sekin turtib, yerga tushirib yubordi. Karlson esa uni ilib olib, Rullening qo'liga uzatdi. Rulle quvonib ketdi.

– Do'stim Fille! – dedi u. – Men sendan bekor xafa bo'libman, sen haqiqiy sadoqatli ekansan.

Shunday deb, Rulle Oskarning ko'zini shang'alat qildi va soatni yerga tashlab yubordi. Karlson uni olib, darrov Fillening qo'liga tutqazdi.

– Sen ham vafodor do'st ekansan, endi bildim! – dedi Fille. Shu payt desangiz, Oskar dod solib yubordi:

– Hamyonim yo'q! Soatim ham gumdon bo'libdi! Topib beringlar, birodarlar! Bir tiyinsiz bu azim shaharda qayga borama-an!..

Fille ham, Rulle ham hamyon bilan soatni tapillatib stol ostiga otib yubordilar.

– E, sening yirtiq karmoningni boshimizga uramizmi?

Ikki o'g'ri bilan mehmon yigit qaytib kirishdi.

Qandilga ilinib turgan soatini ko'rib, Oskar sevinib ketdi:

– Iye, ana mening soatim! Tavba, kim ilib qo'ydi ekan-a uni?

U soatini olib, stolga qaradi. Ne ajabki, kosada hamyonni yotardi.

– Voy, mana, karmonim ham shu yerda ekan. Men bo'lsam, qayga yo'qotdim, deb o'ylanib yuribman.

Ikki o'g'ri Oskarni gap bilan chalg'itib, uni shilib olish maqsadida unga turli xil ichimlik va yegulik taklif qildilar.

– Azizim Oskar, ol, uyalma, yeb-ichib o'tir. Begona shaharda ochiq qolma.

Fille shunday dedi-yu, dasturxon tagida yotgan hamyonni sekin turtib, yerga tushirib yubordi. Karlson esa uni ilib olib, Rullening qo'liga uzatdi. Rulle quvonib ketdi.

– Do'stim Fille! – dedi u. – Men sendan bekor xafa bo'libman, sen haqiqiy sadoqatli ekansan.

Shunday deb, Rulle Oskarning ko'zini shang'alat qildi va soatni yerga tashlab yubordi. Karlson uni olib, darrov Fillening qo'liga tutqazdi.

– Sen ham vafodor do'st ekansan, endi bildim! – dedi Fille. Shu payt desangiz, Oskar dod solib yubordi:

– Hamyonim yo'q! Soatim ham gumdon bo'libdi! Topib beringlar, birodarlar! Bir tiyinsiz bu azim shaharda qayga borama-an!..

Fille ham, Rulle ham hamyon bilan soatni tapillatib stol ostiga otib yubordilar.

– E, sening yirtiq karmoningni boshimizga uramizmi?

– O'zingga ehtiyot bo'lmaisanmi, nodon bola! – dedi Fille.

– Soatingni qaysi go'rda yo'qotgansan, qayoqdan bilamiz? – deb sherigini quvvatladi Rulle.

Karlson esa hamyon bilan soatni oldi-da, sekingina Oskarning qo'liga tutqazdi. Hozirgina yig'lamsirab o'tirgan Oskar birdan kulib yubordi.

– Unaqa hazil qilmanglar-da, akalar! Odamning yuragini yoray dedingizlar. Rahmat!

Shu payt Karlson Fillening oyog'ini mo'ljalga olib, qattiq tepdi.

– Ho'v, ahmoq, nega tepasan? Hali ta'ziringni berib qo'yaman! – deb baqirdi Fille. U meni Rulle tepdi deb xayol qilgan edi.

Karlson endi Rullening oyog'iga ayamay tepdi. Fillening basharasi tirishib, o'zi engashib qoldi.

– Voy yaramas-ey! Sen men bilan yoqalashmoqchisan shekilli? – deb o'dag'ayladi Rulle. – Unaqa bo'lsa, tur o'rningdan, nomard!

Ikki o'g'ri baravar irg'ib turdilar va bir-birining yoqasidan olib, mushtlasha ketdilar. Oskar esa paytdan foydalanib, tura qochdi. Qaytib bu yerda qorasini ko'rsatmadi.

4. KARLSONNING «ARVOH» BO'LGANI

Fille bilan Rulle dahlizda jiqillashib turishganda, Karlson bilan Bolakay astagina stol tagidan chiqib, tomga qarab qochib qolishdi. Ular Karlsonning uyiga borib berkinishmoqchi edi.

– Haligi o'g'rilar ko'zdan yo'qolsin, keyin seni o'zim uyingga oborib qo'yaman, – dedi Karlson. Shu payt katta ko'chadan o't o'chiruvchi mashinaning chinqirgan ovozi eshitildi.

– Qayerga o't ketdi ekan, a? – dedi Karlson, – menga aytishmaydimi, yordam beraverardim. Axir dunyodagi eng zo'r o't o'chiruvchi o'zimman-ku!

Erkin MALIK

ko'zdan yo'qolguncha og'zi ochilib, qara-a-a-b qoladi. O'zi ham ko'chani o'ziniki qilib, to'ldirib yuradi. Oyoqlarini g'alati qilib o'rab bosganidanmi, tuyoqlari tagidan atrofga dapra-dupur, dapra-dupur ovoz taraladi. Qarab turgan odamning ham yuragi dapra-dupur qilib urib ketadi. Ustidagi odam xuddi lo'mbillama orom kursisida o'tirgandek bo'ladi. Parizot chavandozlarning, ot o'g'rilarining ko'ziga tushib qolgan. Biz-ku bir marta minsak, uch kun maqtanamiz.

Otlar orasida yana ikkitasi bor. Ular qorabayirlar. Ikkoviyam qozon kuyasidek qopqora. Tim qoraligi uchunmi, kunduz kuni ham ko'zlaridan uchqun chaqna turadi. Sirlari zulukdek yalt-yult qiladi. Ular Parizotdan ozg'in-u, ammo bo'ylari uzu-u-u-n. Bel demagan ingichka. Parizot bilan qorabayirlar yonma-yon tursa, biri kunga, biri tunga o'xshaydi. Qorabayirlar faqat uloqqa va katta poygalarga miniladi. Poygalarda, uloqlarda yutib chiqishsa, qishloqda duv-duv gap bo'ladi. Yutilgan sovrin qishloq bo'ylab ko'z-ko'z qilib, olib o'tiladi. U gilammi, namatmi, baribir, farqi yo'q. Sovringa pul tikilgan bo'lsa, eri urushda o'lgan uylarga tarqatiladi. Jonlik bo'lsa so'yib, go'shti xomtalash qilinadi. Qarabayirlarning orqasidan katta-katta narx bichib, chavandozlar keladi. Otlar kolxozniki ekanligini bilganlaridan keyin hafsalalari pir bo'lib, bir ahvolda qaytib ketishadi. Kolxozniki sotilmaydi. Karimboy cholning qaramog'ida shunaqa ta'rifi zotdor otlar ko'p... Chechan degan yana bittasi bor. O'h-ho'-o'-o'... u haqda ertakka o'xshagan g'alati gaplar yuradi, bu to'g'rida ham keyinroq...

Karimboy chol yoz bo'yi bedapoyadan bedapoyaga ko'chib yuradi.

Aziz bolajonlar, sevimli yozuvchimiz Erkin Malikning «Osmondan tushgan Oqtosh» nomli qissasini maroq bilan o'qib chiqqandingiz-a? Adibimiz Siz uchun yana bir yangi qissa yozibdilar. E'tiboringizga havola etilayotgan bu qissa ham sizga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Bo'zsuv bo'ylaridagi bir qishloqda otboqar Karimboy chol-u va yana bir to'da bolalar yashardi. Ular orasida «yetimcha – yetti kulcha» deb nom olgan kamina ham bor. Karimboy chol bilan tez-tez urishib, yarashib turamiz. Odamzot o'zi shunaqa ekan, urisharkan, yarasharkan... Qayerda tinch hayot bor deysiz?! Mayli, gap Karimboy cholda emas, bizni nima ishimiz bor u bukri chol bilan? Gap chol boqadigan otlarda. Ular shundoq otlarki... Chopsa shamol bo'lib ketadi. Ajina shamollar ham ularni quvib yetolmaydi. Ammo, lekin bittasi bor. Otmisan, ot! Nomi ham Parizot. Parilar zotidan-da. Parizotni faqat rais Qozoqvoy ota minadilar. Boshqa hech kim. Unda-munda jilovi menga ham tegib turadi. Aytib qo'yay, boshqa bolalarga tegmaydi. Bu haqda keyinroq. Parizotning tanasi oppoq. Siz hech oq ot ko'rganmisiz? Kinolarda ko'rgandirsiz? Boshqa qayerda ham ko'radingiz? Men va mening o'rtoqlarim otlar orasida katta bo'lganmiz. Mazza-a... Parizot kunduzlari oppoq Oymomoga o'xshab dala oralab kezib yuradi. Rais buva jilovni qayoqqa bursalar, shu yoqqa yo'rtadi. Kechalari o'zidan g'alati shu'la – nur chiqaradi. Ko'cha-ko'yda uni ko'rgan odam to

Qissa



Ijodkor borki, yoshi ulg'aygan sayin bolalar va o'smirlarga ezgu so'zlar aytgisi keladi. Shoir Murod Rahmon akangiz ham Sizlar uchun bir ajoyib guldasta tayyorlabdilar. O'qib, kerakli xulosalar chiqararsiz, degan umiddamiz.



HAYOTIY SATRLAR

Yaxshidir shon-shuhrat, boylik, daromad, Lekin avval bo'lsin sihat-salomat...

To'g'rilik, halollik – berar halovat, Halovat topmas kim – bo'lmas salomat.

Sog'liq uchun e'tibor, Baxt-iqbolga etar yor.

Qadrsizdir yillab yiqqan oltin, zar – Sog'lig'ing tiklashga yaramasa gar.

Giyoh – og'u, etar hayotig'ir, Nechun umring xazon etasan axir?

Zaharga aldanib, mast bo'lmoq nechun, Aziz bu joningga qasd qilmoq nechun.

Mehr – qarashlarda, mehr ko'zdadir, Saxovat avvalo shirin so'zdadir.

Farovonlik – tinchlikdan, Yurt ravnaqi – birlikdan.

Adolatdan ellar shod, Tinchlikdan – Vatan obod.

Murod RAHMON

KUZDAN XABAR

Osmon yana bulut chaqirdi, Quyosh oldi o'zni panaga. Shamol ochib eshikni birdan, Kirib kelar to'g'ri xonamga.

Chayqaladi daraxtlar asta Ayvonimda qushlar chug'uri. Tutib ketar ko'kni birpasda Chaqmoqlarning gumbur-gumburi.

Suv yuzida barglar suzadi, Tun cho'zilib, kun ilimoqda. Xazonrezgi bog'lar kezadi – Kuz faslidan xabar kelmoqda.

Muqaddas TAYLANOVA

O'ZBEGIM FARZANDIMAN

Biz hamisha yuksakmiz, Yengilmas kelajakmiz. Chunki biz mustaqilmiz, O'zbekning iqbolimiz.

Kelajagimiz buyuk, Biz faxrli farzandmiz. Mustaqillik erkimiz, O'zbekning iqbolimiz.

Yurtimning tinchligi deb, Doim yelib uchaman. Buning uchun xalqimga, Chin dildan so'z beraman.

Lola ODILJONOVA,
Sergeli tumanidagi 266-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi

GAZETXONLAR - BILIMDON

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyida tahsil olayotgan 450 nafar o'quvchilarga 50 dan ziyod o'qituvchilar, fan nomzodlari, fan doktorlari ta'lim-tarbiya beradilar. Ayniqsa, ushbu litseyi bitirib, oliy ma'lumotli bo'lib, yana ilm maskanimizga qaytgan yosh o'qituvchilarimiz 10 foizni tashkil etishi bizni quvontiradi.



Tadbirlarda o'quvchilar faol ishtirok etishadi.

O'quvchilarimiz bilimdon. O'tgan yili tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha kimyo fanidan Akrom Ahmedov Respublika olimpiadasida 1-o'rinni egalladi. Minsk shahrida dunyo bo'yicha o'tkazilgan olimpiadada ham g'oliblikni qo'lga kiritdi va imtiyozli ravishda Tibbiyot akademiyasiga o'qishga qabul qilindi.

Farzandlarimizni jismonan sog'lom bo'lishiga alohida e'tibor qaratganmiz. Bizda sportning sakkiz turi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Talabalarning ma'naviy yetuk, iqtidorli bo'lib yetishishlarida litseyning «Kamolot» va «Ma'rifat» radio-gazetasining o'rni kattadir. Radio-gazetada ijodkor o'quvchilarimiz faol ishtirok etmoqdalar.

Shuningdek, o'quvchilarimizning she'r va maqolalari «Tong yulduzi» gazetasida ham tez-tez bosilib turadi. O'quvchilarimiz o'z gazetasini sevib mutolaa qilishadi. Ayni obuna mavsumida esa biz - murabbiylar ham «Tong yulduzi» gazetasiga ko'proq o'quvchilarimizni jalb qilishga harakat qilyapmiz.

Ahror HUSANOV,

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi direktori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

7

QO'L YETMAS CHO'QQI



Tasavvur qiling: qasrga kiringiz, u yerdagi 10 eshikning 9 tasi ochiq, bittasi berk. Avvalo berk eshikning oldiga bormaysizmi? Men yuqoridagi tasvirni bejiz keltirganim yo'q. Bu holat ba'zi ota-onalarning farzandiga berayotgan tarbiyasiga qiyos. Ko'chadan o'tayotib, 13-14 yosh atrofidagi qizlar yigitlar bilan qo'l ushlashib

ketayotganining guvohi bo'lasiz va, nahotki shu qizlarning ota-onasi bo'lmasa, deb o'ylab qolasiz. Ularning aksariyatining onasi va hatto qattiqqo'l akalari ham bor. Ammo bu qizlar ularning-da nazoratidan o'tib, yigitlar bilan ham uchrashishga jur'at topishadi. Bunga sabab, ularning oila a'zolari «yigitlar bilan suhbat» degan eshikni ular uchun berkitib qo'yganliklaridir. Tabiiyki, aynan shu eshik aksar qizlarning diqqat markazida. O'zini bosib olgan, yigitlarga ko'pam e'tibor qilmaydigan qizlarning ota-onalari ularga ishonishadi, hadeb tergayverishmaydi, aksincha, ularga dildosh bo'lishga harakat qilishadi. Ularning o'zlari ham sirli, kamtar bo'lganliklari uchun yigitlarning hurmatini qozonishgan. Demak, qizlar bilan keragida do'st bo'lmoq darkor ekan. Men ancha qizlarni kuzatgan holda shu xulosaga keldim. Shuning uchun bu fikrlarga yuzaki qaramasdan, mulohaza qilishingizni istardim. Aziz dugonalar, qalbimizda muhabbat mehmon bo'lsa, o'zbekona sharm va ibo pardasi ko'tarilmasin. Yigitlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lgandan ko'ra, ular uchun qo'l yetmas cho'qqi bo'laylikki, toki ular bizga yetishishni faqat orzu qilishsin.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA

Tahririyatimizga juda ko'p xatlar keladi. Ammo Qashqadaryoning Chiroqchisidan uzoq yo'l bosib kelgan bir maktub bizni e'tiborsiz qoldirmadi. Gulafzalning maktublari orqali Qahramon qishlog'ining «qahramonlari» bilan yaqindan tanishdik.

Qishloqdoshlari bilan bizni ham tanishtirishga harakat qilgan, ularga mehr qo'ygan, kasblaridan faxrlangan bu tengdoshingizga gazetamizdan munosib joy bergimiz keldi.

MEHRIBON MUALLIM

Doniyor aka YORMATOVni 25 yildan buyon qishlog'imizdagilar ardoqlab keladi. Ular maktabda alifbo saboqlaridan dars beradilar. Qishloq ahlining ko'pchiligi o'z farzandlarini shu inson qo'lida ta'lim-tarbiya olishlarini xohlaydilar. Kasbdoshlari orasida o'zining xushmuomalaligi va iliqlik gap-so'zlari bilan alohida ajralib turadilar. Bugungi kunda ustozning sobiq o'quvchilari yaxshi kasb egalari bo'la olishgan. Men ham hozir Doniyor akaning a'lochi o'quvchisi bo'lib tahsil olayotganimdan faxrlanam.



KO'NGLIMIZDAN JOY OLGAN

Yaqinda oyim betob bo'lib qoldilar. Shifokorlarga uchrashganlarida, ular ko'pgina dori-darmonlar yozib, zudlik bilan davolanishni aytishdi. Shunda oyim qishlog'imiz shifokori Mustafu Ergashevdan muolaja olishni boshladilar. Qo'li yengil bo'lgan shifokorimiz tez orada oyimni oyoqqa turishlariga yordam berdi. Biz oilamiz bilan bu insondan minnatdor bo'ldik.



Mustafu aka oqko'ngil odam. O'z yordamini hech qachon, hech kimdan ayamaydilar. O'zlari qo'shni qishloqda yashaydilar. Ammo qishlog'imiz odamlari ko'nglidan joy olganlar. Shifokorimizning mehribonlik fazilatlarini ko'rib, menda ham shifokorlikka mehr uyg'ondi. Nasib etsa, kelajakda oq xalat kiyib, Mustafu akadek oqko'ngil insonlar bilan kasbdosh bo'lmoqchiman.

USTA ASQARNING AHDI

Qishlog'imizda Asqar degan usta bor. U bundan 3-4 yil oldin oliygohga hujjat topshirib, o'qishga kirolmadi. Bekor yurmayin, deb qishlog'imizdagi katta usta Bahodir amakidan eshik, deraza romlari va mebellar yasashni qunt bilan o'rgana boshladi. Keyingi yili esa u o'zi mustaqil ravishda usta bo'lib tanilib qoldi. Hatto hunarga shu darajada berilib ketganligidan institutga hujjat topshirishga ham borolmadi. Uning ishlarini kuzatib turib: «Oliyog'ha kirolmaganingizdan armon qilmaysizmi?» deb so'radik. Ular bo'lsa, jilmayib shunday javob berdilar: «Ha, talabalik baxti menga nasib etmadi, ammo hunarli bo'lish baxti nasib etganligidan xursandman».



G. ARZIYEVA,

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, «Mehnatobod» fermerlar uyushmasi, «Qahramon» qishlog'i

Bir yosh yigitdan:

- Qaysi qo'shiqchini yoqtirasan? - deb so'radim.

- Ma'murjon To'xtasinovni, - dedi yosh yigit.

- Qiziqchilardan-chi?

- Mirzabek Xolmedovni...

- Qaysi aktyorni yaxshi ko'rasan? - yana so'radim undan.

- Muhammadali Abduqunduzovni.

Yosh yigitning hozirjavoblighi menga juda yoqdi va savol berishda davom etdim:



G'aroyib suhbat

- Qaysi shoirning ijodiga ishqing baland?

- Muhammad Yusufning she'rlarini sevib o'qiyman.

- Qaysi futbolchini yoqtirasan?

- Mirjalol Qosimovni.

- Bokschilardan-chi?

- Muhammadqodir Abdullayevni, - hozirjavob yigit bu savolga ham javob berdi. Bu suhbat boshqa suhbatlarga qaraganda menga o'zgacha ta'sir qildi. Chunki yigitni yoqtirgan qahramonlarini barchasining ismi «M» harfidan boshlanar edi.

- O'zingni isming nima? - deb yana murojaat qildim yosh yigitga.

- Muhammadislom, - deb javob berdi u...

Muzaffar AHMEDOV

YAXSHI

«TOJI TILLO XO'ROZIM» BIZNING UYDA



Men oilada katta farzandman. Yaqinda uka va singillarim bilan uyda yolg'iz qolishga to'g'ri keldi. Ular anchagina sho'x bo'lganliklari uchun nima bilan chalg'itishni bilmay qoldim. Shunda kitob javonimizdagi rang-barang suratli kitobchalarni qo'limga oldim-da, ularga o'qib bera boshladim.

Maktabgacha va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan «Maqtanchoq

KITOBBLAR

quyon», «Dehqon va ayiq», «Toji tillo xo'rozim», «Tulki va tayoqcha» kabi rangli suratlarga boy bo'lgan kitobchalar darrov ukalarimning e'tiborini tortdi. O'qish va yozishni endigina o'rganayotgan singlim Ziyodaxon «Toji tillo



BOR

xo'rozim» kitobchasidagi she'rlarni tezda yodlab ham oldi.

O'ylaymanki, ushbu rus va o'zbek tilida chop etilgan kitobchalar ukalarimning tasavvurlarini kengaytirish bilan birga ularda kitobga bo'lgan mehri uyg'otdi.

Yaqut YIGITALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Uchkö'prik tumanidagi
9- maktab o'quvchisi

BUGUNNING



«YANGI AVLOD» LARI

Hayotdagi shiorlari: insonlar qalbini ezgulik nurlari bilan yoritish va san'at chashmasining tomchilaridan o'zgalarni ham bahramand etish.

Qiziqishlari: yangi musiqiy asarlarni o'rganishga harakat qilishadi va rasm chizishni yoqtirishadi.

Orzulari: kelajakda mashhur orkestr ijrochilari bo'lish va yurtimizda yagona «O'smirlar orkestri» nomini olish.

– Qaysi xorijiy davlatlarda ijodiy safarlarda bo'ldingiz?

– Bir qancha xorijiy davlatlarda safarda bo'ldik. «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasining tashabbusi bilan o'z ijodimizni Moskva, Fransiya va yana boshqa bir qancha chet davlatlarida namoyon etish baxtiga muvassar bo'ldik.

Yoshlar simfonik orkestri – «Yangi avlod» bolalar festivalining 2006-yildagi g'oliblari Nilufar Muhiddinova, Nuron Muqimiy, Behruz Ne'matov, Ivan Denisenko hamda Aziz Shohakimov kabi yosh iqtidor egalaridan tashkil topgan. Ular V.Uspenskiy nomidagi musiqa litseyida tahsil oladilar.



– «Yangi avlod» festivalidan olgan taassurotlaringiz.

– Festival bizga musiqa borasida egallagan bilimimizni sinash, o'zgalarni san'atidan bahramand bo'lish va do'stlik aloqalarini bog'lash imkonini berdi. Garchi bu festivaldagi ishtirokimiz birinchisi bo'lmasa-da, sahnada xuddi ilk bora kuy chalayotgandek his etdik o'zimizni. Chunki bu kabi keng qamrovdagi va muhtasham festivalning aynan bolalar ijodiyotiga bag'ishlanganligi diqqatga sazovordir.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV


«SIZ BIRINCHI BO'LDINGIZ»



Tahririyatimizga nuroniy bir otaxon nabiralarni yetaklab kirib keldilar.

– Gazetangizda «Boy bo'lishni istaysizmi?» nomli maqola e'lon qilindi, – dedilar otaxon bizga ko'zlarini qisib qo'yib. – Unda birinchilardan bo'lib «Tong yulduzi»ga obuna bo'lgan o'quvchilarni yangi yil arafasida sirlil sovg'a kutayotgani haqida yozilgandi. Nabiram gazetaga bir yilga obuna bo'ldi. Shunga suratini olib kelgandik, kechga qolmadikmi? Obunachilaringiz soni juda ko'pdir-a?

– Juda yaxshi qilibsizlar-da. Shu kunlarda obuna mavsumining qizg'in davom etayotgani, obunachilarning soni ham ancha ko'payib qolgan rost. Lekin nabirangiz aynan mana shu tanlovda qatnashish uchun kelgan birinchi obunachimiz bo'ladi. Yangi yil arafasida tahririyatimizga kelib, sirlil sovg'angizni olib ketishingiz mumkin, – dedik tortinibgina turgan qizaloqqa qarab. Shu bahona u bilan tanishib ham oldik. Respublika maxsus-maktabining 4-sinfida, san'at maktabining 2-sinfida tahsil olayotgan Madina Sultonova juda iqtidorli qiz chiqib qoldi. Uning chizgan rasmlarini ko'rsangiz, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz.



TABRIKLAYMIZ!

Tanya Xaritonova 26 yildan buyon «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida texnik muharrir vazifasida xizmat qiladi. U yuzlab, minglab o'quv darsliklari va bolalar uchun badiiy kitoblarni bezashda ishtirok etgan.

Qadrli Tanya opani 50 yoshlari bilan qutlaymiz.

Hurmat bilan gazeta jamoasi



Ochil dasturxon



Kerakli masalliq: 300 gr. sabzi, 200 gr. bodring, 50 gr. ko'k piyoz, 0,5 stakan mayonez.

Tayyorlanishi: suvda pishirib, po'chog'i archilgan sabzi va bodringni somoncha shaklida to'g'rang, mayda to'g'ralgan ko'k piyoz, mayonez qo'shib, hammasini aralashtirib, likopchaga soling va ustini sabzi somonchasi hamda ko'k piyoz bilan bezating.

3 dona lavlagini suvda pishirib, 2 osh qoshiq shakar va 1,5 stakan smetana bilan aralashtiring. Ozigina yong'oqni maydalab salsangiz, xushxo'r bo'ladi.

Kerakli masalliq: 6 dona yangi pishgan pomidor, 100 gr. brinza, 0,5 stakan smetana yoki o'simlik yog'i, ko'katlar.

Tayyorlanishi: pomidorlarni yuvib, doiracha shaklida to'g'rang, unga qirg'ichdan o'tkazilgan brinzani qo'shing. To'g'ralgan petrushkani sepib, ustiga mayonez quyib aralashtiring.

Kerakli masalliq: 3-4 dona o'rta kattalikdagi pomidor, 1 dona tuxum, 1 dona bodring, 1 osh qoshiq mayda to'g'ralgan salat barglari, 1,5 stakan mayonez, ko'kat.

Tayyorlanishi: pomidor va bodringni mayda doirachalar shaklida to'g'rang va likopchaga doirachalarni tuxum bilan aralash holda solib aralashtiring. Tayyor salat ustiga mayda to'g'ralgan salat barglarini solib, so'ngra mayonez bilan aralashtirib, ustidan mayda to'g'ralgan ko'kat seping.



NARGIZA tayyorladi



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy,
Obuna indeksi: 198,
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruza MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 18363
Buyurtma N: J 4272

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor ESHCHONOV
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA